



AXBOROT TA'LIM PORTALINI YARATISH

Tohirova Farida Olimjonovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Informatika va information texnologiyalari
kafedrası asistenti

Tolibjonova Shaxzoda Damirovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Sayidmurodova Sevinch Davron qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya: Keyingi yillarda O'zbekistonda jahon amaliyotidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini sifat jihatidan isloh etish, mehnat bozori talablarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasida "ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish" dolzarb vazifa etib belgilangan. Ushbu konsepsiyadan kelib chiqib O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Kalit so'zlar: Portal, axborot, ta'lim portali, axborotlashtirish, ta'lim tizimi...

Jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish borasidagi tajribasidan mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining sifatini boshqarish mexanizmida ijodiy foydalanish ta'lim siyosatini isloh etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarga muvofiq yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 2022 yilda 38%ga, 2026 yilda esa 50%ga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim shakllari, shu jumladan masofaviy ta'lim shakli bo'yicha ham qabul kvotani shakllantirish, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish hamda 2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish belgilangan. Ma'lumki, masofaviy ta'lim shaklini joriy etilishi yoshlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Mintaqalarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, sirtqi, maxsus sirtqi va kechki o'quv shakllarining ochilishi, qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlardan biri sanaladi. Oliy ta'lim tizimining hozirgi holatini baholash, tayyorlanayotgan kadrlar tarkibi, saviyasi, sifatining mehnat



bozori talablariga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida o'quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangilash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va talabaning ta'lim jarayonini tashkil etish oldingi o'rinlarga chiqadi.

Axborot makonini yaratish

Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning rivoji alohida ta'lim muassasalaridagi axborot resurslarining birlashtirilishi orqali axborot makonlarini yaratish bilan bevosita bog'liq. Bunday makonlarni tashkil etishda, avvalom bor, ta'lim muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarni, kutubxona va boshqaruv (rektorat, dekanat, o'quv bo'limi va boshq.) bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularni INTERNET tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim muassasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almanishuvini tashkil etish, axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik majmualarni yaratish orqali talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Hozirda bunday vazifalarni bajarishda portal texnologiyalarini yaratish orqali axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish mumkin. Ta'lim muassasining yagona axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida o'quv jarayonida axborot va telekom munikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborotlarni tizimlashtirish axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Axborot-ta'lim portallarining yaratilishi axborotlarni mantiqiy tartiblash va tizimlaigirishga yordam beradi. Yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Chunki yagona ta'lim muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yaxshi darajada bo'lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash muhim sanaladi. Ta'limni axborotlashtirishning mazmuni quyidagi yo'nalishlar bilan asoslanadi:

1. AKTni joriy etish orqali talabalarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.
2. Talabaning mustaqil ta'lim olish rolini oshirish, yangi axborot texnologiyalarini o'zlaigirishi va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim ulushining ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun yagona raqamli axborot-ta'lim portallarini yaratish lozim.

Portal va unga qo'iiladigan talablar

Portal - bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng kulamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlaigiruvchi tarmoq telekommunikatsiya tuguni hisoblanadi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib portallarga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

- kup sonli foydalanuvchilarga xizmat kursatishi;
- axborotlar ko'lamining kengligi;
- asosiy tarmoq formatlarni qo'llashi;
- oson va samarali qidirish tizimini joriy etishi;
- axborot resurslarining intefatsiyasi;
- axborot xavfsizligini ta'minlashi;



- axborotlarni tabaqalashtirishi;
- bilimlarni boshqarish-tahlil etishi.

Portallarning ko'rsatkichi unda mujassamlashgan axborotlarning ko'lami, ya'ni axborot resurslari hajmi bilan aniqlanadi.

Har qanday portalning maqsadi - foydalanuvchiga unga zarur axborotlarni qisqa vaqtda va turli interfeyslar orasidagi o'tishlarni ortiqcha hatti-harakatlarsiz taqdim etishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim-axborot portallarini tashkil etish, eng avvalo, pedagogik-psixologik talablarga javob berishi kerak. Pedagogik psixologik talablar ichida portal tashkil etish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

- taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli fanning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket bo'lishi, ko'rgazmalilikka ega, amaliyot bilan bog'langan bo'lishi;
- o'quv materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining optimal variantida berilishi;
- o'quv-metodik materiallarining bayon etilishi shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Axborot-ta'lim resurslari dasturlarning mazmuniga mos bo'lishi bilan birga talabalarda zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, ular o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmini aniqlashi, ma'lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi va nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob berishi zarur bo'ladi.

Shuningdek, ta'lim resurslari talabaning tayyorgarlik darajasini mos bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Portalning foydalanuvchi interfeysi unda joylashirilgan resurslarning tarkibini ko'rgazmali namoyish etishi, bir bo'limdan boshqa sahifalarga mantiqiy va tezkor o'tishni ta'minlashi lozim.

Taqdim etilayotgan axborot-ta'lim resurslari mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish uchun test sinovlarini, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Portal uchun multimedia materiallarini tanlashda ularning axborot-mazmuni, tuzilma tarkibi, uzviyligi va axborotlarni taqdim etish shakllariga e'tibor qaratish kerak. Multimedia materiallari axborotlarni oson o'zlashtirish uchun xizmat qilishi: ularning mazmunini ochib berishi, ya'ni axborotlarning mustaqil manbai sifatida foydalanish imkonini berishi lozim.

Texnologik jihatdan axborot-ta'lim portallariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ilovalarni bajarish;
- hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlash;
- o'zida mavjud resurslarni boshqarish;
- foydalanuvchilarni boshqarish;
- nazorat olib borish;
- bilimlarni boshqarish;
- kommunikatsiyani ta'minlash;
- qidiruvni ta'minlash;
- barcha resurslarni ruxsat etilmagan kirishlardan himoyalashi, ya'ni axborot xavfsizligini ta'minlash;



- Tizimga ruxsat berish, ya'ni qayddan o'tishni tashkil etishi zarur.

Axborot-ta'lim portali faoliyati bosqirchlari

Axborot-ta'lim portalining faoliyati 3 ta bosqichning o'zaro bog'liqligi asosida amalga oshadi:

- mazmun bosqichi, bu bosqichda portalning axborot ta'minoti, taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlari, axborot-ta'lim resurslariga tabaqalashtirilgan ruxsat tizimi mexanizmi masalalari ko'riladi;
- tashkiliy bosqich, bu bosqichda portal yaratishning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilar kategoriyalarini aniqlash, mavjud resurslarni tizimlashtirish, resurslarni yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integratsiyalash, masfaviy ta'limni tashkil etish, axborot-ta'lim resurslariga bo'lgan talabni o'rganish maqsadida portal foydalanuvchilari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish amalga oshiriladi;
- metodik ta'minot bosqichi, bu bosqichda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo'lga qo'yiladi.

Axborot-ta'lim portallaridan foidalanish doirasi

Ta'lim mazmunini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biri ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari, ta'limning axborot manbalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muxit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab sanalsada, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot texnologiyalarini tub ma'noda joriy etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari talabalar uchun ma'lumotlarni yetkazish, saqlash, qidirish kabi jarayonlarda katta imkoniyatga ega Xozirda pedagogik ta'lim muassasalarida elektron shaklda ko'plab axborot-ta'lim resurslari yaratilgan, ammo ulardan foydalanishni talab darajasida deb bo'lmaydi. Bu, birinchi navbatda, ilmiy-metodologik bazaning, pedagogik ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashning texnik va metodik muammolari haqida aniq tasavvurning yo'qligi bilan bog'liq. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini alohida ta'lim muassasalarida joriy etilishi borasida muvaffaqiyatlar mavjudligiga qaramasdan, erishilgan natijalar tarqoq shaklga ega. Shu munosabat bilan birinchi navbatda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zaruriyati mavjud:

- erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish asosida pedagogik ta'limning yagona axborot-ta'lim portalini yaratish;
- ta'lim sifatini oshirish maqsadida yagona axborot-ta'lim portalining resurslaridan foydalanish metodlarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, ta'limga mo'ljallangan, integrallashgan axborot-ta'lim va ma'lumot resurslariga ega portalni yaratishga katta ehtiyoj mavjudligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasalarining axborot-ta'lim portali faqat ta'lim muassasalari bilan chegaralanib qolmaydi. U mazkur muassasalarning bitiruvchilariga ehgiyojlari bo'lgan buyurtmachilar uchun ham foydalidir. Portal umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, ta'limni boshqarish organlari rahbarlari uchun bitiruvchilar bo'yicha axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchilar va uning iste'molchilari bilan yangi shakldagi o'zaro aloqani yo'lga qo'yadi.

**Adabiyotlar:**

1. Abdusamatovich K. S., Olimjonovna T. F. Application of web applications in medicine //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 46-50.
2. Malikov, M. R., Rustamov, A. A., & Ne'matov, N. I. (2020). STRATEGIES FOR DEVELOPMENT OF MEDICAL INFORMATION SYSTEMS. Theoretical & Applied Science, (9), 388-392.
3. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 674-677.
4. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
5. Olimjonovna, T. F. (2023). SOCIO-HISTORICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF INTEREST IN THE PROFESSION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL THINKING THROUGH PEDAGOGICAL COMMUNICATION.
6. Olimjonovna T. F. Pedagogical Communication and its Role and Significance in Developing the Professional Thinking of Students //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – T. 16. – C. 82-86.
7. Tohirova, F., & Esanmurodova, D. (2024). THE IMPORTANCE, ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF THE MODULAR PROGRAM IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. Modern Science and Research, 3(1), 789-794.
8. Olimzhanovna, T. F. (2023). Facts about the Poisonous Mammal-Loris. Miasto Przyszłości, 42, 592-594.
9. Elamanova, M., & Toxirova, F. (2023). FACTS ABOUT THE POISONOUS MAMMAL-LORIS. Modern Science and Research, 2(12), 226-229.
10. Olimjonovna, T. F. (2023). FERMENTLAR VA ULARNING INSON ORGANIZMIDAGI O'RNI.
11. Olimjanovna, T. F. (2023). ZAHARLI SUTEMIZUVCHI-LORIS HAQIDA FAKTLAR.
12. Olimjonovna, T. F., Rustamjonovna, T. P., & Zafarovna, I. S. (2023). Causes Leading to Baldness and How to Deal With Them. Miasto Przyszłości, 42, 216-220.
13. Abdusamatovich, K. S., & Olimjonovna, T. F. (2023). Information technologies in the economy. Genius Repository, 26, 30-33.
14. Olimjonovna, T. F. (2023). TELEMEDITSINA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH.
15. Olimjonovna, T. F. (2023). AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.
16. Karabaev, S., & Toxirova, F. (2023). DEVELOPMENT OF TELEMEDICINE TECHNOLOGIES. Modern Science and Research, 2(4), 698-702.
17. Karabaev, S., & Toxirova, F. (2023). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Modern Science and Research, 2(4), 703-707.



18. Abdusamatovich, K. S., & Olimjonovna, T. F. (2023). Information technologies in the economy. *Genius Repository*, 26, 30-33.
19. Tohirova, F. O., Nasrullayev, N. B., Tolibjonova, S. D., & Abdullayeva, V. D. (2024). TIBBIYOTDA AXBOROT TIZIMLARI VA ULARNING TURLARI. *IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI*, 3(10), 1-7.
20. Tohirova, F. O., Nasrullayev, N. B., & Mansurova, J. S. (2024). TIBBIYOTDA ISHCHI O'QITUVCHILARINI AVTOMATLASHTIRISH ASOSLARI. *IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI*, 3(10), 13-19.
21. Tohirova, F. O. (2024). PEDAGOGIK MULOQOT VA UNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(10), 36-41.
22. Tohirova, F. O., Rizaeva, M. M., & Oblakulova, J. A. (2024). DIDACTIC OPPORTUNITIES OF FORMING PROFESSIONAL INTEREST AND IMAGINATION IN MEDICAL PEDAGOGICAL STUDENTS. *PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(10), 42-48.
23. Tohirova, F. O. (2024). PEDAGOGIK MULOQOT VA UNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(10), 36-41.
24. Olimjonovna, T. F. (2024). MODUL DASTURI TA'LIM TIZIMIDA AHAMIYATI, USTUN TOMONLARI VA KAMCHILIKLARI.